

JINOYAT HUQUQIDA TAMOM BO‘LMAGAN JINOYAT TUSHUNCHASI, BOSQICHLARI VA JINOYATDAN IXTIYORIY QAYTISH

Dauletbaeva Aynur Baxramovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

E-mail: dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tamom bo‘lmagan jinoyat tushunchasi, shuningdek uning bosqichlari, jinoyatdan ixtiyoriy qaytish shartlari va tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun umumiy asoslarga ko‘ra jazo tayinlash qoidalari va buni istisno qiluvchi holatlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tamom bo‘lmagan jinoyat, jinoyatga tayyorgarlik, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish, ixtiyoriy qaytish, jazo tayinlash.

Jinoyatlarni sodir etilgan vaqtiga qarab tamom bo‘lgan va tamom bo‘lmagan jinoyatlar kabi guruhlariga ajratamiz.

Tamom bo‘lgan jinoyat O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida ko‘rsatilgandek, ushbu Kodeks moddasida jinoyat tamom bo‘lgan payt ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan vaqt deb hisoblangan bo‘lib, uni sodir etgan shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo‘lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi. Ushbu Kodeks moddasida jinoyat tamom bo‘lgan payt ijtimoiy xavfli oqibat yuz bergan vaqt deb topilgan qilmishlar to‘g‘ri yoki egri qasddan sodir etilgan bo‘lishi mumkin[1].

Tamom bo‘lmagan jinoyat-jinoyat sodir etishda tayorgarlik ko‘rish yoki suiqasd bosqichida, shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra to‘xtatilishi.

Jinoyat rivojlanish jarayonida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tadi. Ular quyidagicha:

7. jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish;
8. jinoyat sodir etishga suiqasd qilish;
9. tamom bo‘lgan jinoyat.

O‘zbekiston Respublikasining JK 25-moddasida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish haqida ta‘kidlab o‘tilgan. Shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratuvchi qilmishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra sodir etilishi boshlangunga qadar to‘xtatilgan bo‘lsa, bunday qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb topiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida sodir etiladigan qilmishlarni ularning mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratamiz. Bular:

9. jinoyat sodir etishga shart-sharoit yaratishga qaratilgan qilmish;
10. jinoyatni yashirishga qaratilgan qilmish.

Qasdni to‘g‘ri va egri qasdlar kabi guruhlariga ajratishimiz mumkin.

Jinoyatni sodir qilishda to‘g‘ri qasd yoki egri qasddan ko‘zlangan xohish-istak orasidagi farq ularning xususiyatiga ko‘ra ajratiladi. To‘g‘ri qasdda jinoyiy oqibatlarining kelib

chiqishini xohlaydi. Egri qasdda esa ushbu oqibatlarining kelib chiqishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yiladi.

To‘g‘ri qasd-agarda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko‘zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo‘lsa, bunday jinoyat to‘g‘ri qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Egri qasd-agarda shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko‘zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, bunday jinoyat egri qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Tamom bo‘lmagan jinoyatlar subyektiv tomondan faqat to‘g‘ri qasd orqali sodir etiladi. Buni T.R.Kuchkarov va M.M.Xaydarovlar quyidagicha isbotlaydi: egri qasd orqali sodir etiladigan jinoyatlarga jinoyat sodir etayotgan shaxsning o‘z qilmishlarining ijtimoiy xavfliligini anglashi, jinoyat sodir etilishi natijasida yuzaga keladigan jinoiy oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishi hamda ularning yuz berishini ongli ravishda istashi xosdir. Egri qasdning aqliy va irodaviy belgilariga berilgan mazkur ta‘rifga asoslangan holda, egri qasd bilan jinoyat sodir etayotgan subyektning maqsadi ongli ravishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hamda yuzaga kelishi jinoiy xatti-harakatning zaruriy sharti sifatida kutiladigan jinoiy oqibatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘zlamaydi, deb xulosa qilish mumkin. Binobarin, jinoiy oqibatlarining yuzaga kelishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yiladigan, biroq istalgan maqsad sifatida ko‘zlanmaydigan egri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda jinoyat bosqichlarining mavjud bo‘lishini qayd etish maqsadga muvofiq emas[2].

Tamom bo‘lmagan jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyati ular ehtiyotsizlik orqali sodir etilmaydi. Chunki ehtiyotsizlik(o‘z-o‘ziga ishonish yoki beparvolik orqasida sodir etish) oqibatida sodir etiladigan jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rish imkoniyati mavjud emas.

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish-qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi.

Jinoyat boshlanishi bu shaxsning jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishning boshlanganligini bildiradi. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichini jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishdan asosiy farqi ham jinoyat sodir etishning boshlanishi hisoblanadi.

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishga O‘zbekiston Respublikasi JKda berilgan ta‘rifning mazmuniga qarab, ushbu bosqichni tavsiflovchi belgilarini aniqlash mumkin.

Ularga quyidagilar kiradi:

- jinoyatni bajarishni boshlanishi;
- jinoyatning tamom bo‘lmaganligi;
- jinoyatning shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra tugallanishi.

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning birinchi belgisi haqida yuqorida keltirib o‘tgandik. Ikkinchi belgisi esa boshlangan harakatning oxiriga yetkazilmaganligini anglatadi. Jinoyatning tamom bo‘lishiga to‘sqinlik turli xil holatlarni bir narsa birlashtiradi, ularning har biri jinoyatchining xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra yuzaga keladi.

Aynan shu belgi suiqasdning yuqorida ko‘rsatilgan obyektiv belgilarni birlashtirib, uni jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdan farqlashning imkonini beradi[3].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 26-moddasiga muvofiq shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to‘xtatsa, shuningdek jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikni istisno qiladi. Jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs, agar amalda sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining barcha alomatlari bo‘lsa, ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

Jinoyatdan ixtiyoriy qaytishning o‘ziga xos maxsus xususiyatlaridan biri bu jinoyat sodir etishni davom ettirish imkoniyatining mavjud ekanligidir[4].

Agarda shaxs ijtimoiy qilmishni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to‘xtatsa va jinoiy oqibat kelib chiqishini anglagan va uning oldini olgan bo‘lsa jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi JK 26-moddasi 3-qismiga ko‘ra jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan shaxsning sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining barcha belgilari bo‘lsa, ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlik kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi JK 58-moddasida tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash qoidalarini ko‘rsatilgan.

Sud tamom bo‘lmagan jinoyatga jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qilgan holda jinoyatning og‘ir-yengilligini, jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasini va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablarini ham hisobga oladi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning to‘rtinchi qismidan oshmasligi kerak. Mazkur qoida: o‘ta xavfli retsidivistlarga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a‘zolariga nisbatan; tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek quyidagilar bilan: javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish bilan; o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo‘rluk ishlatib, jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan; o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan; voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etish bilan; voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo‘shmachilik qilish, fohishaxonalarni tashkil etish yoki saqlash bilan; yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg‘in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo‘lgan materiallarni hamda uskunalarni, radioaktiv materiallarni kontrabanda qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar uchun jazolar tayinlashda qo‘llanilmaydi.

Tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki , huquqni muhofaza qiluvchi organlar sodir etilgan qilmishning harakatlariga huquqiy baho berishda jinoyatlarning tamom bo‘lgan va bo‘lmaganligini, ularning sodir etilgan vaqtini, joyini, aybdorning shaxsini, qilmishning ijtimoiy xavfliligini har tomonlama e‘tiborga olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/-111453#-179929> Jinoyat Kodeksi
2. T.R.Kuchkarov; M.M.Xaydarov. Jinoyat huquqida tamom bo‘lmagan jinoyat. O‘quv-amaliy qo‘llanma. T. 2016. 11-b.
3. M.H.Rustamboev. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharh.Umumiy qism. T." Adolat".2016. 203-b.
4. Utemuratova S.SH. Jinoyat huquqi. Umumiy qism.O‘quv qo‘llanma.T."Metodist nashriyoti".2023.51-bet.